FARG'ONA VODIYSI OBIDALARINI RESTAVRATSIYA QILISHDA AUTENTIKLIK TAMOYILI VA TURISTIK FOYDALANISH O'RTASIDAGI MUVOZANAT

Abdug'ofurov Muhammadqodir Abdunosirbek o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti, PhD izlanuvchisi
Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Nasiba Arabovna**
(PhD) v.b. professor

Dolzarbligi. Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysida (Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari) ko'plab tarixiy-me'moriy obidalar tiklandi va turistik marshrutlarga kiritildi. Turistlar oqimi ortgani sari restavratsiya sifati va obidaning tarixiy haqiqiyligini saqlash masalasi birinchi o'ringa chiqmoqda: tiklash faqat tashqi ko'rinishni emas, ilmiy-tarixiy qatlamni ham asrashi kerak.

Maqsad. Vodiy obidalarini qayta tiklash amaliyotini autentiklik, butunlik va qaytaruvchanlik mezonlari asosida baholash hamda restavratsiya bilan turistik foydalanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash yo'llarini aniqlash.

Metodologiya. Tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillari qo'llanildi. Tahlilning metodologik asosi sifatida ICOMOSning Venetsiya xartiyasi va UNESCO Butunjahon merosi operatsion yo'riqnomalaridagi mezonlar olindi. Bu yondashuv obidalarni vizual jihatdan emas, ilmiy-tarixiy qatlamga hurmat nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

Asosiy natijalar.

1. 2020–2025-yillarda madaniy meros boshqaruvi modernizatsiya qilindi, raqamli reyestrlar joriy etildi va restavratsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish talablari qat'iylashdi. Shu sababli qayta tiklash loyihaoldi tadqiqot, materialshunoslik tahlili va muhofaza rejimini o'z ichiga olgan kompleks jarayonga aylandi.
2. Amaliyotda uchta asosiy kamchilik kuzatildi: autentik materiallar o'rniga zamonaviy materiallarni noo'rin qo'llash, tarixiy bezaklarning soddalashtirilishi va vizual koridorlarning buzilishi. Bular tiklash sifatini faqat tashqi ko'rinish bo'yicha baholash yetarli emasligini ko'rsatadi.
3. Obida atrofini obodonlashtirishda ortiqcha "reprezentativlik" (haddan ziyod granitlash, kattalashtirilgan maydonlar) insoniy ko'lamni yo'qotish xavfini tug'diradi. Piyodaga qulay muhitni saqlash shaharsozlik madaniyatining muhim mezoni bo'lib qolishi lozim.
4. Qo'qon tajribasida restavratsiya muzeylashtirish bilan cheklanmay, xizmat ko'rsatish, ziyorat va mahalla hayotini uyg'unlashtirdi. Marg'ilonda hunarmandchilik (atlas-adras to'qish, ipakchilik) va ziyorat turizmi shaharsozlik identitetining bir qismi sifatida rivojlanmoqda. Obida atrofida hunarmandchilik va xizmat sohasi qayta jonlansa, tarixiy markaz iqtisodiy jihatdan barqaror saqlanadi; aks holda u faqat epizodik tashrif maydoniga aylanib qolish xavfi mavjud.
5. Tiklangan obidalarning turistik infratuzilma bilan integratsiyasi klasterlashuvga va xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik, transport hamda savdo tarmoqlarida multiplikativ effektga olib kelmoqda. Bu yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy byudjet daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar.

6. Restavratsiya sifatini baholashda autentiklik darajasi va qaytaruvchanlik tamoyilini asosiy mezon qilish.
7. Tashrif buyuruvchilar sonini tartibga soluvchi ruxsat tizimini (carrying capacity management) joriy etish.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

8. Mavsumiylikni kamaytirish uchun gastro-, hunarmandchilik va etnografik turizmni rivojlantirish.
9. Virtual tur, AR/VR va audio-gid tizimlari orqali turistik tajribani boyitish.
10. Turizm va meros sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash.

Xulosa. Farg'ona vodiysi obidalarining turistik salohiyatidan barqaror foydalanish uchun restavratsiya ilmiy mezonlarga, ya'ni autentiklik, butunlik va qaytaruvchanlikka tayanishi, obida atrofidagi hunarmandchilik va xizmat muhiti esa tarixiy markazning iqtisodiy hayotini saqlashi zarur.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, restavratsiya, autentiklik, qaytaruvchanlik, turistik yuk, hunarmandchilik, madaniy meros.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.